



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IMLOVIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Yusupova Mehriniso Meyliyevna

Samarqand viloyati Paxtachi tumani 5-umumi o‘rta ta’lim maktabi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imloviy savodxonligi ularning umumi potensialini belgilab beradi desak adashmagan bo‘lamiz. Ushbu maqolada imloviy savodxonlikni oshirish metodologiyasi, o‘ziga xosligi va imkoniyatlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, tanlab qayta hikoyalash, so‘z ma’nosi, so‘z birikma va gap, gaplarning mantiqiy bog‘lanishi, insho, bayon, ijodiy bayon.

KIRISH

Boshlang‘ich sinf ona tili dasturining mazmun va mohiyati o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, savodli og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish tashkil etadi. Imlo savodxonligini oshirishda esa insho va bayon yozishning *optimal metodlari* shakllantirilgan bo‘lib, bu o‘rinda ularning eng muhimlari tahliliga etiboringizni tortamiz.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbek pedagogikasi tajribasida Insho va Bayon yozishning quyidagibir necha optimal metodlari mavjud:

Ravon yozish metodi. Bu metodga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari muayyan matn asosida Insho yoki biror mavzu bo‘yicha bayon yozishga ko‘niktirishi kerak. Buning uchun o‘quvchilar quyidagilarga o‘rgatiladi¹³⁰:

- so‘zlar manosini tushunish va ularni to‘g‘ri yozish;
- so‘zlarni to‘g‘ri bog‘lash va qo‘sishchalarini to‘g‘ri qo‘yish;

¹³⁰ Бордовская Н.,Реан А. Педагогика. – СПб., 2011



- fikrni matnni bayon qilish va qisqa gaplar tuzish;
- imkon qadar obrazli va qiyosiy yozishga ko‘niktirish; harflarni to‘g‘ri ifodalash (“h” va “x” harflarni farqlash kabi).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari O‘qituvchi yordamida bu ko‘nikmalarnio‘zlashtirishi taqazo etiladi. Shu xolda o‘quvchilar ravon va chiroyli yozishmetodini kutilgan darajada o‘zlashtirmaydi.

Hozirgi kunda Internet texnologiyalarining rivojlanganligi va ulardan 7-11 yoshli o‘quvchilarning ham keng foydalanilyotganligi ravon yozish metodini o‘zlashtirishda bazan murakkabligini yuzaga keltirmoqda. Chunki Internet sahifalarda ko‘p so‘zlar noto‘g‘ri yozilmoqda, shevada yozish hollari uchraydi va imlo qoidalariga qilinmaydi. O‘quvchilar esa ularni yozishni shundayligicha o‘zlashtirmoqda.

Fikrni mantiqda ifodalash metodi. Mazkur metodga binoan boshlang‘ich sinf yozgan insho va bayon yozma ishlarini o‘z fikrlarini mantiqli ifodalashi kerak. Bunda o‘quvchilarga quyidagilar o‘rgatiladi:

- matnni yoki bayonni his qilishi;
- fikrni qisqa so‘zlarda ifodalay olishi;
- yozish ko‘nikmasini egallashi;
- mustaqil fikrlashga harakat qilishi;
- yetarli darajada so‘z boyligiga ega bo‘lishi;
- yozishga qiziqish bilan yondashishi;

Bu ko‘nikmalar o‘qituvchi yordamida darsdan darsga qarab o‘zlashtirib boriladi. Shunday holatlар uchraydiki, bazi o‘quvchilar ko‘p o‘qidi va yetarli darajada so‘z boyligiga ega bo‘ladi, lekin fikrini yozma ravishta mantiqni ifodalashga qiynalishadi. Bunday hollarda o‘quvchilarning imkon qadar har bir o‘quvchi bilan individual ishslash taqazo etiladi.

Hikoyalash metodi. Bu metodga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari Insho va Bayon yozishda tavsiya etilgan planni yoki mavzuni yozma hikoya qilib berishi kerak. Shu



sababli bu masalalarda o‘quvchilar quyidagilarga ega bo‘lishi taqoza etiladi¹³¹:

- matnni yoki mavzuni chuqur tasavvur qilish;
- fikrni rejali bayon qila olish;
- matn yoki mavzuning asosiy jihatlarini yoritish;
- detallar va tinish belgilarini qo‘llay olish;
- qiziqarli yozish;

Mazkur ko‘nikmalar o‘qituvchi tanlovidan o‘tkaziladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini insho va bayon yozish vositasida hikoya qila olishga o‘rgatish muhim yutuqdir. Chunki unda o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimi, ko‘nikmasi va malakasi namayon bo‘ladi. Ularning ijodkorlik tuyg‘usi aynan yozma hikoya qila olish vositasida rivojlanib boradi.

Ijodiy yozish metodi. Mazkur metodga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini insho va bayonni ijodiy yozishi kerak. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini quyidagilarga ko‘niktirilishi kerak:

- matn yoki mavzuga mustaqil yondashish;
- o‘zgani qiziqtirish;
- mustaqil fikrlash;

Bu ko‘nikmalar o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Mazkur ko‘nikmalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi shart. Aks holda, o‘quvchilarda ijodiy ijodiy yozish metodi va yozma nutq kutilgan darajada shakllanmaydi.

Hozirgi zamон boshlang‘ich talim muhiti ilmiy, pedagogik, psixologik va fiziologik qadriyatlar asosida tashkil etilmoqda. Ayni paytda, Insho va Bayon yozish o‘qitish vositasini qo‘llashda erkinlik, qulaylik va qiziqarlik tamoyillarga asoslangan talim muhitini yaratish taqazo etiladi. Unga ko‘ra, bola Insho va Bayon uchun tanlangan matn yoki mavzuni erkin o‘zlashtirish, yana o‘zi istagandek qulay sharoitda yozish va yozma ishga qiziqish bilan yondashishi kerak¹³².

¹³¹ Kadirovna, Adilova Dilorom. "LEARNING STRATEGIES FOR MODERN PEDAGOGY." *E-Conference Globe*. 2021.

¹³² Ona tili o‘qitish metodikasi. Qosimova K va boshqalar.-T: "Nosir".2009. Xudayberganova M. Bayonlar to‘plamidan.-T: "O‘qituvchi". 2016



“Individual shug‘ullanish” - bu o‘qituvchining o‘quvchiga yakka tartibda pedagogik tasirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biridir. Insho va Bayon yozma ishni amalga oshirishda imkon qadar har bir o‘quvchi bilan individual shug‘ullanish muhim masaladir. Chunki bazi o‘quvchilar tavsiya etilgan matn yoki mavzuni mazmunan tez tushuna olmaydi, ayrimlari fikrini o‘zi istaganidek ifodalay olmaydi yoki ko‘pchiligi erkin yozishga kirishishga qiynaladi. Shu sababli o‘qituvchining har bir o‘quvchini insho va bayon yozishga individual tayyorlash taqazo etiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Zero, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga Insho va Bayon yozishning optimal metodlarini qo‘llash zamonaviylik, qulaylik va samaradorlik talablari ilk rejasida turadi. Shu sababli o‘quvchilarining jismoniy imkonyatlari talimiymuhit va individual shug‘ullanish masalalari bunda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning o‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan murojaat nutqi. // <http://www.ZiyoNet.uz>.2020 yil 1 oktabr
2. Pedagogik atamalar lug‘ati. Tuzuvchilar R. Djuraev, R.Safarova va boshqalar.-T: “Fan”.2018. 90-bet.
3. Ona tili o‘qitish metodikasi. Qosimova K va boshqalar.-T: “Nosir”.2009. Xudayberganova M. Bayonlar to‘plamidan.-T: “O‘qituvchi”. 2016
4. Kadirovna, Adilova Dilorom. "LEARNING STRATEGIES FOR MODERN PEDAGOGY." *E-Conference Globe*. 2021.
5. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. *Scienceweb academic papers collection*.
6. Бордовская Н.,Реан А. Педагогика. – СПб., 2011